

YURAK QON-TOMIR KASALLIKLARI. GIPERTONIYA.

Muallif; Gulboyeva

Madinabonu Qaxramonjon

Qizi Qo'qon Universiteti

Andijon filiali davolash ishi

25-03 guruh

Annotatsiya; Ushbu maqolada yurak qon tomir kasalliklaridan biri bo'lgan gipertoniya kasalligini ilmiy va psixologik jihatdan tahlil qilamiz. Arterial gipertoniya (AG) –qon bosimini (QB) me'yoriy ko'rsatkichlardan yuqoriga turg'un ko'tarilish holati bo'lib bu o'zgarish kamida ikki marta turli sharoitda (shifokor qa'buli, uyga chaqiruv) va bemorning tinch holatida shifokor tomonidan hech bo'lmaganda uch marta o'lchangandan keyin aniqlangan bo'lishi lozim. Ayni vaqtda bemor AQB ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi dori vositalar qa'bul qilmaganligi ushbu ta'rifni asoslashning asosiy sharti hisoblanadi.

Kalit so'zlar; qon bosimi, gipertoniya, arterial gipertenziya, qon-tomir, yurak.

Kirish.

AG sindromi deganda QB ning barqaror oshishi bilan kecgadigan barcha patologik kasalliklar nazarda tutiladi. Uni mavjudligini tasdiqlovchi asosiy mezon arterial bosimni (AB) tegishli yoshga nisbatan ko'tarilishi hisoblanib, uning 18 yoshdan kata bo'lgan bemorlar uchun ko'rsatkichlari quyidagicha;

- Sistolik QB >140 mm sim.ust;
- Diastolik >90mm sim.ust.

Lekin QB ko'rsatkichlari tez o'zgarib turishini hisobga olgan holda, bemorda AG sindromi aniqlanganda uni hafta davomida bir necha marta kuzatish mumkin.

Etiologiyasiga ko'ra AG ning ikkita katta guruhi farqlanadi;

- Birlamchi (essensial) AG gipertoniya kasalligi (GK)
- Ikkilamchi (simptomatik) AG.

GK etiologiyasi noma'lum bo'lsa ham uning rivojlanishiga olib keluvchi aksariyat havf omillari XO hamda shakllanishini ta'minlovchi patogenetik mexabizmlar to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Ulardan quyidagilar muhim ahamiyatga ega;

- Sistolik va diastolik QB ko'rsatkichlari;
- Puls bosimi ko'rsatkichlari (qariyalar)
- Bemor yoshi (ayollar 65 yoshdan, erkaklar 55 yoshdan katta)
- Dislipidemiya
- Bemorda va uning ota-onasida qandli diabet (QD) kasalligining borligi
- AG va boshqa yurak qon-tomir tizimi kasalliklariga nasliy moyillik
- Semizlik (bel aylanasi erkaklarda 102sm, ayollarda 88sm dan ortiq bo'lishi)
- Atrof muhit ta'siri
- Ovqatlanish xususiyatlari va chekish
- Jismoniy faollik darajasi
- Shaxsiy xususiyatlari
- Kasbi
- Ijtimoiy ahvoli
- Nasliy moyillik yuqorida sanab o'tilgan XO orasida eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism.

Sog'lom odamda yurakning qon otib berish hajmi oshsa asosan, mushak turidagi arteriyalar tonusi kamayishi hisobiga umumiy periferik tomir qarshiligi pasayadi. Ahsincha, yurakning qon otib berish hajmi pasayishi, umumiy periferik tomir qarshiligining birmuncha oshishi bilan birga kechib, qon bosimi keskin tushib ketishining oldini oladi. Xuddi shunday natijaga natrizurez va diurezni kamaytirib, aylanib yuruvchi qon hajmini ko'paytirish yo'li bilan erishish mumkin.

3 ta GEMODINAMIK ko'rsatkichlar o'zaro farqlanadi;

1. Markaziy boshqaruv bo'g'ini

2. Arterial baro va xemoretseptorlar

3. Simpatik va parasimpatik asab tizimlari.

Xulosa; xulosa qilib aytganda yurak qon-tomir kasalliklarining barchasi inson uchun havfli bo'lganligi sababli, arterial gipertenziya (gipertoniya) ham inson hayoti uchun havfli hisoblanadi. Ushbu kasallikdan aziyat chekadigan har bir inson shifokor tekshiruvida bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Abdig'affor Gadayev. Ichki kasalliklar/
2. Baykulov A.K.
3. Anvarovich C.A, Razhabboevnason A.R, Safarovich T.O.